

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALARNI O'QITISH

Farg‘ona Viloyati Oltiariq tumani
29- umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi
Akbaraliyeva Hilolaxon Furqatjon qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizda inklyuziv ta‘lim tizimining takomillashuvi va bu ta‘lim tizimi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta‘lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi, muammolar, yechimlar haqida so‘z boradi. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta‘lim tizimida o‘qitish masalalariga e‘tibor beriladi.

Kalit so‘zlar

Integratsiya, ta‘lim, inklyuziv, korreksion ish, ijtimoiy moslashtirish, rivojlanish, takomillashuv, harakat

Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalar va o‘smirlar ta‘limi, ularning nuqson turlari va uning darajalarini inobatga olgan holda maxsus ta‘limning 8 ta yo‘nalishi (aqli zaif, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, nutqida, ko‘rishidava eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar) bo‘yicha korreksion ta‘lim tashkil etilgan. Bugungu kunda mamlakatimizda maxsus ta‘lim sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ko‘pchilik mamlakatlarda imkoniyati cheklangan bolalarni integratsion ta‘limga jalb qilgan holda ta‘lim-tarbiya berilmoqda. “Bola huquqlarini kafolatlash to‘g‘risida”gi qonunning 29-moddasida ruhiy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarga umumta‘lim muassasalarida ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta‘lim dasturlari bo‘yicha o‘qish va tarbiya olish hamda ularning jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xoxishiga qarab ta‘lim olish huquqlarini kafolatlaydi.

Inklyuziv ta‘lim (ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion- uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma‘nolarini bildiradi) nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta‘limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat‘iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta‘lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta‘lim tizimidir.

Inklyuziv ta‘lim turli xil ehtiyojli bolalarni ta‘lim olishini qo‘llaydi, yutuqqa erishishiga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi va barcha bolalarni teng ko‘rishni ko‘zda tutadigan ta‘lim. Ya‘ni millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilasining jamiyatda tutgan o‘rni, moddiy va ma‘naviy ahvoli, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo‘lishidan qat‘iy nazar barcha bolalarni teng ko‘rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qadrlash, rivojlantirishni ko‘zda tutadigan ta‘limdir. Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla

Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta’limning ta’siri to’g‘risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limning dolzarbligi shundaki, imkoniyati cheklangan bolalar sonining ko‘payishi va maxsus korreksion ta’lim muassasalarning yetarli emasligi hamda, kerakli resurslar bilan ta’minlanmaganligidadir. Shuni ta’kidlash joizki, inklyuziv ta’lim sharoitida bola sog‘lom tengdoshlari orasida bo‘lib oiladan ajralmagan holda ta’lim-tarbiya olishga muassar bo‘ladi. Shuningdek imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim tizimida ta’lim olishining afzalligi shundaki, ta’limga sarflanadigan sarf-harajat maxsus ta’limga nisbatan kamayadi.

Hozirgi kunda jahon miqiyosida ham inklyuziv ta’lim strategiyasi, ya’ni rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash masalasi keng targ‘ib qilinmoqda. Inklyuziv ta’lim tizimi quyidagi ta’lim muassasalarni o‘z ichiga oladi: maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim.

Bu ta’lim muassasalarning maqsadi bolalarning ta’lim olishi va kasb-hunarga tayyorlashda ularning o‘rtasidagi to‘siqni bartaraf etib ochiq ta’lim muhitini yaratishdan iborat. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, insonning qadr qimmat, uning qobiliyati va yutug‘iga bog‘liq emas, har bir inson o‘ylash va his qilish qobiliyatiga ega, har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega, har bir kishi bir-biriga muhtoj, hamma kishilar o‘z tengdoshlarini qo‘llab quvvatlashga muhtojdir. Jamiyatimizda imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan yangilash fikr va munosabatlar mavjud. Ular haqida ma’lumotlarning kamligi va ularga maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta’lim-tarbiya berilishi bunga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday munosabatni yo‘qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribalardan shu narsa ma’lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o‘xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta’lim -tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan o‘zlari singari bola ekanliklarini anglab, kamsitmasliklarini ta’minlagan bo‘lar edi.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiyasini yanada takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish hozirgi kunda dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Umumiy va maxsus ta’lim muassasalari o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etib, inklyuziv ta’limni amaliyotga tadbiq etish va imkoniyati cheklangan bolalarga qulay shart-sharoitlar yaratish bugungi kun talablaridan biridir. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim muassasalarida o‘qitish, ya’ni inklyuziv ta’lim uchun birinchi navbatda qulay shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Nogironlikni erta tashxis qilish, umumta’lim muassasalari binolarida alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan barcha shart-sharoitlar (inshoatlar)ni yaratish, korreksion yordamni amalga oshirishning markaziy tarmog‘ini ko‘paytirish, umumta’lim muassasalari va maxsus ta’lim muassasalari o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatish, ayrim nogironligi bo‘lgan bolalarni umumta’lim muassasalari sharoitida o‘qitishni tashkil etish maqsadida umumta’lim muassasalari pedagoglari malakasini oshirish, qayta tayyorlash kurslaridan o‘tkazish va ularni maxsus yordamchi vositalar, o‘quv-metodik adabiyotlar, uslubiy qo‘llanmalar bilan ta’minlash, shuningdek maktabda turli dasturlar yordamida ta’limni tashkil etish, barcha bolalar uchun ta’lim sharoitini yaratish lozim.

Inklyuziv ta‘lim jarayonida pedagoglar o‘z sinflari guruhlariga nogironligi bo‘lgan katta odammiyoki bolani taklif etib va u bolalar bilan nogironlikning ijtimoiy holatlari haqida suhbatlashish natijasida tushuntirib berishlari mumkin. Sinfda nogironlik imkoniyatlarining chegaralanganligi tushunchalarini tushuntirish, hamda kimlar nogiron hisoblanishini aytib to‘g‘ri tushuncha bera olishi lozim. Kasal bo‘lgan yoki qisqa muddatga biror joyini jarohatlagan inson bilan nogiron inson orasidagi farqni o‘quvchilarga tushuntirib berishi lozim. Ko‘pgina bolalar kasallik yoki jarohatlanish tajribasiga egalar. Ular bilan shu haqida va ularning tanalarida yuz bergan o‘zgarishlar haqida suhbatlashib ulardan bunday vaqtda o‘zlarini qanday his qilganliklarini so‘rash, ularga nogironlik bu batamom tuzalib ketmaslik yoki sog‘ayish uchun yillar kerak bo‘ladigan holatda tana bilan yuz beradigan hodisa ekanligini tushuntirish lozim.

Pedagog nogironlikning ko‘rish, eshitish, ruhiy vaboshqa jarayonlarining zaifligi, kamligi kabi oddiy tushuncha ekanligini o‘quvchilar ongiga singdirib borishi kerak. Bu o‘quvchilardan o‘z hatti-harakatlarni nazorat qilishiga yordam beradi. Inklyuziv ta‘lim joriy qilingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim. Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilklarini bartaraf etish va korreksiyalashga qaratiladi.

Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologik-pedagogik jihatdan o‘rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo‘yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta‘lim muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko‘rsatadi. Inklyuziv ta‘limda metodik yordamturli xil shakllarda bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- sinf o‘qituvchisiga maslahat va yordam berish;
- maxsus o‘qitish qo‘llanmalari va yordamchi materiallar bilan ta‘minlash;
- ota-onalar, ko‘ngillilar yoki katta o‘qituvchilar tomonidan mavjud bo‘lgan yordamlarni ta‘minlash;
- o‘quv reja, dars jadvali, baholash mezoalarini moslashtirish;
- o‘qituvchilar bilim va malakalarini oshirish uchun sharoit yaratish;
- ta‘lim jarayonidagi o‘stona munosabatni shakllantirish;
- ijtimoiy psixologik va sog‘liqni-saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish kabi ishlarni amalga oshirishdan iborat. Bugungi kunga kelib ota-onalarning o‘z farzandini garchi nogironligi bo‘lsa ham, nimalarga qodir ekanligini anglashib, farzandlarini umumta‘lim ya‘ni inklyuziv maktab, bog‘chalarga berish istaklarini bildirishmoqda. O‘zbekistonda bu kabi bolalar va yoshlarni umumta‘lim muassasalarida o‘z tengdoshlari bilan birgalikda ta‘lim olishi ijobiy natija bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta‘lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020
3. Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta‘lim (Xalqaro va O‘zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011
4. Muzaffarova, X. (2021). Ақли заиф болаларни ташхислаш ва уни амалга оширишга қўйиладиган талаблар. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1).
5. Ashirova O'. A. “Inklyuziv ta`limni rivojlantirish bo`yicha innovatsion yondashuv usullari”. “Pedagoglar malakasini oshirish tizimiga innovatsion yondashuv: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy – amaliy onlayn konferensiyasi. 2022 yil 6- 7 aprel.2022 yil
6. Л.С.Выготский. Дефект и сверхкомпенсация.//”Проблема дефектологии”. М.; 1996
7. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013
8. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
9. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.
10. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta‘lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil.
11. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko ‘nikmasini shakllantirish muammolari. O ‘ZBEKIST, 87.
12. Atadjanova, M. A. (2021). Animation mythology and its functional nature in the current uzbek prose. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(2), 70-78.